

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI TURG‘UN BIRIKMALARNI MUQOBILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI.

Nazirov Salimbek Olim og‘li

nazirovsalimbek@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti filologiya va
tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tilidagi ayrim frazeologik birliklar qiyoslanib, ularning semantik-stilistik va struktural tomonlarini izohlandi. Misollar yordamida ikki tildagi frazeologizmlarning o‘xshash va farqli xususiyatlari aniqlandi. Shuningdek, maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi iboralar va maqollarni o‘zaro muqobillashtirish va frazeologik til korpusini yaratish bo‘yicha takliflar berildi.

Kalit so‘zlar: *frazema, idioma, maqol, turg‘un birikma, erkin birikma, korpus, semantik ma‘no, yaxlit ma‘no, ustama ma‘no, sintaktik aloqa, leksema, funksional bo‘yoq, emotsional-ekspressiv bo‘yoq, kontekst, muqobillashtirish, mantiqiylik.*

Mustaqillik yillarining dastlabki davrlaridan boshlab milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va o‘zbek tiliga bo‘lgan e‘tibor har qachongidan oshdi, ayniqsa, yaqin bir necha yil ichida tilni rivojlantirish, uning mavqeyini oshirish, jahon tillari bilan bir qatorda korpus muammosini hal qilish dolzarb masalaga aylandi. Bu borada esa tilshunoslik va unga tutash tarmoqlarda yaqin yillardan beri jiddiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Til ijtimoiy hodisa ekan, undagi leksik qatlam ham tarraqqiyot nuqtayi nazaridan o‘zgarib, boyib, yangi ma‘no kasb etib boraveradi. Bunday o‘zgarishlar tilning qolipini shakllantirishda bir qancha muammolar keltirib chiqarishi, muqobil variantlarni tanlashda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. So‘zning yondosh ma‘nolari kontekst tarkibida rang-barang ifoda semalarini hosil qiladi, bu esa kishining zukko bo‘lishini talab qiladi. O‘zbek tilini o‘rganuvchi yoki shu til bilan bog‘liq faoliyatga duch keladigan o‘zga til vakillari uchun bu kabi mazmuniy

xilma-xillik soʻzlarni chalkash va notoʻgʻri tushunishga olib keladi. Natijada matn semantik va struktural jihatdan notoʻgʻri shakllanadi. Bu kabi muammolarning aksari tilning frazeologiya boʻlimida uchraydi.

Turgʻun birikmalardagi mazmuniy birliklar yaxlit maʼno ifodalashi soʻzlarning ustama maʼnolari bilan belgilanadi. Uni alohida tarjima qilish esa kutilgan maʼnoni keltirib chiqarmaydi va matn mazmunini butunlay oʻzgartirib yuboradi. Tarjimonlik sohasida, jumladan, frazeologizm tarjimasida birozgina noʻnoqlik kuzatilsa, kitobxon (oʻquvchi) buni darhol payqaydi. Koʻp hollarda tarjimon bunga eʼtiborsiz yondashadi va iborani toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qilib qoʻya qoladi. Aksar holatlarda “aybini yuvish” qabilida qoʻshimcha izohlar keltiradi. Bu esa stilistik gʻalizlikka sabab boʻladi. Badiiy asar goʻyo avtomatik tarjima qilingandek xulosa uygʻotadi.

Professor Sh.Rahmatullayev iboraga quyidagicha taʼrif bergan edi: “Ibora ham tarkibli til birligi, lekin uning maʼnosi tarkibidagi leksemalarga xos maʼnolarning oddiy yigʻindisiga teng boʻlmaydi. Iboraga xos maʼno tarkibidagi leksemalarning maʼnosiga nisbatan maxraj maʼno, ustama maʼno sifatida gavdalanadi, bu maʼno ibora tarkibidagi leksemalarning maʼnosiga suyanmasligi ham mumkin”.[Rahmatullayev,1978:4] Masalan, “*ogʻzi qulogʻida*” frazemasidagi soʻzlarni alohida tarjima qilish mazmuniy gʻalizlikni yuzaga keltiradi, uning “*juda xursand*” ifoda semasi esa korpusda unga toʻgʻri lugʻaviy maʼno berish yoki muayyan tildagi shu kabi iboraga muqobil ibora topish bilan hal qilinadi. Tilda soʻzlar oʻrniga iboralar va idiomalardan foydalanish nutqni jozibali va taʼsirchan qilib, ifodaliligini taʼminlaganidek, uni tarjima qilayotganda shu iboraga mos erkin birikmalardan emas, balki muayyan tildagi turgʻun birikma (ibora, idioma, maqol)lardan foydalanish maqsadga muvofiq boʻladi va soʻzlarning kishilar ongida *funksional* va *emotsional-ekspressiv* boʻyoq kasb etishida xizmat qiladi. Lekin filologik lugʻatlarning aksariyatida frazaemalarning uslubiy xususiyatlari

yoritilmaydi. “Leksikografik va frazeologik manbalarda frazeologik birikmalar (FB) turlicha izohlanadi. FBlarning qo‘shimcha uslubiy ma‘nosi (konnotativ xususiyati) qayd etilmaydi. Aslini olganda, FBlarning uslubiy tomoni ta‘kidlanganda lug‘atlarda maxsus havolalar – belgilar qo‘llanilishi lozim”. [Yo‘ldoshev;1999:11]

Darhaqiqat, o‘zbekcha turg‘un birikmalar korpusga kiritilganda ularning stilistik jihatlariga e‘tibor berish, uslub va konteksts nuqtayi nazaridan muqobil ibora tanlash tarjima jarayoning muhim bosqichlaridan biridir. To‘g‘ri, frazemalar tarkibidagi so‘zlar va unga yuklangan semalar boshqa tildagi muqobil frazemalarga to‘laqonli mos kelmasligi, tarjimaning ifodaliligi va mantiqiylikiga putur yetkazishi mumkin. Turg‘un birikmalarning har bir til tarkibida ommaning madaniy-ma‘rifiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlaridan kelib chiqishi, har bir xalq mentalitetini aks ettirishi ularni to‘laqonli uslubiy va grammatik normalar asosida tarjima qilish imkonini bermaydi. Iboralar gapda so‘zlar bilan sintaktik aloqaga kirishishi uchun muayyan sintaktik qurshovga ega bo‘lishi lozim. “*Sintaktik qurshov deganda iboralarning nutqda turli bo‘laklar bilan bog‘lanishi nazarda tutiladi. Iboraning biror sinaktik qurshovga ega bo‘lishi uning turkumiga, ichki sintaktik qurilishiga, fe‘l iboralarda fe‘l so‘z – komponentining boshqaruviga va bu boshqaruvning ibora tarkibida reallashgan yoki reallashmaganligiga, ot komponent tarkibida qatnashadigan egalik affiksiga bog‘liq*”. [Rahmatullayev,1978:12] Shuning uchun barcha frazemalarga muqobil topish va uni sun‘iylashtirish shart emas. Quyida ingliz va o‘zbek tilidagi turg‘un birikmalarni muqobillashtirishni ba‘zi misollar orqali ko‘rib chiqamiz.

A drop in the ocean – deyarli ta’sir qilmaydigan, juda kam miqdor. Bu ibora tarjima qilinganda “*okeandan bir tomchi*” degan ma‘noni bildirib, o‘zbek tilidagi “*dengizdan tomchi*”, “*xamir uchidan patir*” frazemalari bilan bir xil ma‘no ifodalaydi va ular bilan mazmunan sinonim bo‘ladi. Bu ibora gap tarkibida boshqa so‘zlar bilan semantik va grammatik jihatdan to‘laqonli birikadi, ya’ni o‘zbek

tilidagi “xamir uchidan patir”, “dengizdan tomchi” frazemalari o‘rnida erkin qo‘llana oladi.

The cost of a hotel for one night is a drop in the ocean for a big company like that – bir kechalik mehmonxona narxi bu kabi kompaniyalar uchun dengizdan tomchi/ xamir uchidan patir(dir).

A leopard can’t change its spots – bu ibora xulq-atvor va xarakterni hech qachon o‘zgartira olmaslikni ifodalashda foydalaniladi, tarjima qilinganda “*leopard (qoplon) o‘z dog‘larini o‘zgartira olmaydi*” degan ma‘noni ifodalaydi, o‘zbek tilida “*bukrini go‘r tuzatadi*” maqoliga mazmunan yaqin bo‘lib, grammatik qurilishi farq qiladi.

To be born with silver spoon in your mouth – mavqe va boylik jihatdan ustun oilada tug‘ilib, ko‘plab imkoniyatlarga ega bo‘lish. O‘zbek tiliga “*og‘zida kumush qoshiq bilan tug‘ilmoq*” deya tarjima qilinadi. Bunda “*kumush qoshiq*” boylik ma‘nosiga ishora qilgan, bu iboraning o‘zbek tilida aynan muqobili yo‘q, lekin mazmunan “*og‘zi qiyshiq bo‘lsa ham, boyning bolasi gapirsin*” maqoliga juda yaqin.

I’ve always had to work hard because I wasn’t born with a silver spoon in my mouth – men nuqul qattiq ishlashga majbur bo‘lganman, chunki men og‘zimda kumush qoshiq bilan tug‘ilmaganman.

Once in a blue moon – juda kamdan kam, paytga nisbatan ishlatiladi. O‘zbek tiliga “*ko‘k oyda bir marta*” deya tarjima qilinadi. “*ko‘k oy*” birikmasi bu yerda ko‘chma ma‘noda bo‘lib, harakatning deyarli bajarilmasligini ifodalaydi. Bu idiomatimizdagi “*tuyaning dumi yerga tegganda*”, “*toshbaqa tog‘ga chiqqanda*” “*xo‘roz tuxum qo‘yganda*” kabi turg‘un birikmalarga yaqin turadi, farqli jihati ingliz tilidagi idiomada juda kamdan kam bo‘lsa-da harakat yuz berishi mumkin.

To be honest, I only go to museums *once in a blue moon* – ochig'i, men ko'k oyda bir marta (juda kam) muzeylarga borib turaman. Bu kabi tajima qilinganda idiomani tilimizdagi yaqin frazemalar bilan almashtirib bo'lmaydi, bu esa mantiqiy g'alizlikni keltirib chiqaradi, bunday vaziyatda iboraga mos so'zlar yoki erkin birikmalardan foydalanish nutqni mantiqiyligini ta'minlaydi.

Dance with death – bu iborani o'zbek tiliga “o'lim / cho'g / olov bilan o'ynashmoq” deya tarjima qilish mumkin.

He danced with death when he tried to negotiate a deal with that dangerous criminal. (u xavfli jinoyatchi bilan kelishishga urinib, o'lim bilan o'ynashdi.)

Fight like cat and dog – it-mushuk(dek) urushmoq / bo'lmoq, ***go against the flow*** – oqimga qarshi bormoq, ***you can't please everyone*** – hammaning ko'ngliga yo'l topa olmaysiz, hammani mamnun qilolmaysiz, ***in the same boat*** – (bir xil qayiqda) asosan, muammolarga nisbatan ishlatiladi, “dardimiz bir”, “bir xil ahvolda”, ***do the dirty work*** – eng kir / qora / og'ir ishlarni qilmoq kabi juda ko'plab iboralar shaklan va mazmunan o'zbek tilidagi turg'un birikmalar bilan deyarli bir xil ma'no ifodalaydi. Shuningdek, turg'un birikmalar sirasiga kiruvchi ingliz va o'zbek tilidagi maqollarni (proverbs) o'zaro muvofiqlashtirish bo'yicha ham bugungi kunda jiddiy tadqiqotlar olib borilmagan. Aslini olganda, frazeologik konstruksiyalarni gap tarkibiga kiritish, ularning sintaktik qonuniyatlarini ochib berish boshqa tildagi maqollarni tarjima qilish jarayoniga qaraganda birmuncha mushkul. O'zbek tilida bo'lgani kabi ingliz tilida ham maqollarni gapda so'zlar bilan muayyan sintaktik aloqaga kiritish shart emas, ya'ni maqollar so'zlovchi berayotgan fikrga mazmunan mos bo'lib, gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi, fe'lli va o'tli frazemalar singari turlanish va tuslanishga uchramaydi. Shu sababli, maqollarga muqobil variant tanlash jarayonida ularning sintaktik, morfologik qurilishidan ko'ra semantik mohiyatiga diqqat qaratish lozim. Masalan, ingliz tilidagi ***“a friend's eye***

is a good mirror” maqolani o‘zbek tiliga morfologik va sintaktik qonuniyatlar asosida tarjima qilish kutilganidek to‘laqonli ma’no bermasligi, kishilar ongida emotsional-ekspressiv vazifa bajara olmasligi mumkin, shuning uchun ham unga semantik jihatdan mos bo‘lgan maqol topish lozim bo‘ladi, o‘zbek tilida ushbu maqolga “*do‘st – do‘stning oynasi*”, “*do‘st achitib gapirar, dushman kuldirib*” maqollari mazmunan juda mos keladi. Ba’zan bir xil shakl va mazmundagi maqollar ikkala tilda ham mavjud bo‘lishi mumkin, “*a cat has nine lives*” – *mushukning to‘qqizta / qirqta joni bor* yoki shakli biroz o‘zgarishi mumkin, “*(the) apple doesn’t fall far from the tree*” – *olmaning tagiga olma tushadi* kabi. Lekin bu kabi holatlar til leksikasida ko‘p uchramaydi. Quyida ingliz va o‘zbek tilida keng qo‘llaniladigan turg‘un birikmalarning qisqacha lug‘atini tuzishga harakat qildik.

1. ***A rotten apple spoils the barrel*** – 1) bir chimdim tuz bir xum asalni buzar, 2) tirriq qo‘zi podani buzar.
2. ***Bad news travels fast*** – 1) yomon gap/ xabar tez tarqaladi 2) yomon gapning oyog‘i olti 3) so‘z oyoqdan ilgari borar
3. ***Be swift to hear, slow to speak*** – 1) kam gapirib, ko‘p eshit.
4. ***(The) early bird catches the worm*** – 1)avval kelgan ho‘kiz suvning tozasini ichar, 2) oldin otlangan manzilga oldin borar.
5. ***Clothes don’t make the man*** – 1) tashqi ko‘rinish aldamchi 2)tuz ham shakar kabi ko‘rinadi.
6. ***Better late than never*** – 1) hechdan ko‘ra kech yaxshi.
7. ***Better be the head of a dog than the tail of a lion*** – 1) ho‘kizning oyog‘i bo‘lguncha, buzoqning boshi bo‘lgan yaxshiroq 2) yoli qalin eshakdan yag‘ir bo‘lsa ham ot yaxshi, 3) odamning kuyugi bo‘lguncha o‘rmonning kiyigi bo‘l, 4) echkinning boshi bo‘lguncha qo‘yning quyrug‘i bo‘l.

8. **Better to drink the milk than to eat the cow** – 1) tovuqni yesang, bir yeysan, tuxumini yesang, ming yeysan 2) sog'ib ichsang, ming kunlik, sotib yesang, bir kunlik.
9. **Every rose has its thorn** – 1) atirgulning ham tikani bor 2) oyning ham yuzida dog'i bor, 3) har to'kisda bir ayb.
10. **False friends are worse than open enemies** – olisdagi dushmandan angib yurgan do'st yomon, 2) ablah do'st dushmandan yomon, 3) yomon do'stdan qirda yotgan tosh yaxshi.
11. **He laughs best who laughs last** – 1) yaxshi ot keyin chopadi, 2) jo'jani kuzda sana.
12. **Lightning never strikes in the same place twice** – 1) ko'r hassasini bir marta yo'qotadi, 2) devona ham xurjunini bir marta yo'qotadi.
13. **Never put off till tomorrow what can be done today** – 1) bugungi ishni ertaga qoldirma 2) qolgan ishga qor yog'ar.
14. **You can lead a horse to water but you can't make it drink** – zorimiz bor-u, zo'rimiz yo'q. (O'zbek tilida aynan bu iboraga shaklan va mazmunan mos turg'un birlik uchramaydi)
15. **Don't count your chickens before they hatch** – 1) podadan oldin chang chiqarma 2) to'ydan oldin nog'ora chalma
16. **A bad workman blame his tools** – 1) o'zolmagan otga uzangi bahona, 2) o'yin bilmagan xotinga uy torligi bahona.
17. **A burnt child dreads the fire** – 1) sutdan og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichar, 2) tikanni bosgan qadamini bilib tashlar.
18. **A calm sea does not make a skilled sailor** – 1) bo'ynidan bog'langan it ovga yaramas, 2) kepakka boqilgan ot ko'pkariga yaramas.
19. **A picture paints a thousand words / a picture is worth a thousand words** – 1) yuz bor eshitgandan bir bor ko'rgan yaxshi.
20. **A fish always rots from the head down** – 1) baliq boshidan sasir

21. *An eye for eye, a tooth for tooth* – 1) jonga jon, qonga qon

Yuqorida keltirilgan maqollarning ro'yxatini yana ko'plab davom ettirish mumkin, bu kabi tadqiqotlar turg'un birliklarning mazmunini ochishda, ularni boshqa tildagi muqobillari bilan almashtirishda o'ziga xos pillapoya vazifasini bajaradi. Maqollarni korpusda muqobillari bilan muvofiqlashtirishda ularning stilistik va lingvokulturologik jihatlariga e'tibor qaratish ham muhim vazifalardan biridir. Har bir til vakili bu kabi turg'un birikmalardan o'z nutq sharoiti va imkoniyatiga qarab foydalana olishi uchun lug'at tarkibidagi turg'un birikmalar yetarli va mos sinonimlari bilan to'la boyitilishi shart. Ya'ni so'zlovchi ingliz yoki boshqa tillardagi turg'un birliklarni o'z tiliga tarjima qilish jarayonida nutqiy faoliyatga mos ravishda o'zi xohlagan sinonimidan foydalana olishi kerak va yuqorida ta'kidlaganimizdek, ibora muqobilining uslubiy va grammatik jihatlariga qisman bo'lsa-da lug'atda yoritilishi lozim. Bu to'g'ri nutq tuzish, mazmuniy noaniqlik va mantiqisizlikning oldini olishga yordam beradi. Xulosa qilib aytish mumkinki, har bir til o'zining polisemantik xususiyatlariga ega, bu esa tilning boyligini ko'rsatuvchi o'ziga xos omillardan bo'lib, ularni til korpusga kiritish kompyuter lingvistikasi va tilshunoslik qonun-qoidalaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Bu kabi turg'un birliklar millat hayotining ajralmas qismi bo'lib, uning tarixiy, ijtimoiy-madaniy hayotini aks ettiradi, so'zlovchi nutqining boyligi, ifodaliligi va ta'sirchanligini oshirib, nutqning kommunikativ sifatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. Б 407.
2. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари: ўқув қўлланма – Самарқанд, 1999. Б-206
3. O'zbek xalq maqollari. T. Mirzayev. – Toshkent, 2005.
4. Malcolm Mann. Destination C1,C2 Grammar and Vocabulary – Macmillan. 2018.
5. English idioms, Phrases, Proverbs, Slangs. App.
6. www.phrases.com